

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Y.Shuxratova</b>	
Nasriy matnlar va nutqning hasrat konsepti.....	357
<b>J.Djamolov</b>	
O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida" qonuni .....	360
<b>K.Karimov</b>	
O'zbek tilining milliy korpusida falsafiy terminlarni berish masalasi .....	367
<b>A.Binnatova, N.Toirova</b>	
XX asr adabiyotida ramziy obrazlarning poetik xususiyatlariga doir .....	372
<b>M.Komilova</b>	
O'zbek tilshunosligida o'zlashma leksemalarning o'rganilishi tarixi.....	376
<b>U.Nosirova</b>	
Poetik matnlarda simptom masalasi .....	381
<b>X.Maripova</b>	
<b>Harbiylar nutqida pragmatik ma'noning ifodalanishi.....</b>	<b>385</b>
<b>M.Gazieva</b>	
Presuppozitsiya va implikasiya xususida .....	388
<b>M.Xalilova</b>	
Badiiy nutq mikromatnlarining lug'aviy o'ziga xosligi xususida.....	392
<b>G.Jo'raboyeva, A.Tursunov</b>	
Farg'ona viloyati etnotoponimlarining atalish motiviga ko'ra turlari .....	395
<b>M.Gulmatova</b>	
Uslubshunoslikda ilmiy uslubning shakllanishi.....	399
<b>Y.Ro'ziyev</b>	
Ikkinchi tur o'zlashtirmalik va mikromatn.....	405
<b>A.Mirzaliyeva</b>	
Semantikaning tilshunoslik sohasi sifatida o'rganilishi.....	411
	MATEMATIKA
<b>Sh.Karimov, Sh.Oripov</b>	
Singulyar koeffitsiyentli to'rtinchi tartibli giperbolik tenglama uchun koshi masalasini .....	416
<b>E.Karimov, I.Maxkamov</b>	
Mittag-leffler tipidagi funksiyalarning integral ko'rinishlari.....	428
	FIZIKA– TEXNIKA
<b>E.Bozorov, A.Jo'iliyev</b>	
Neytronlar fizikasi fani ma'ruzlarini o'qitishda "Venn diagrammasi" usulidan foydalanish.....	431
	KIMYO
<b>Sh.Yarmanov, S.Botirov, D.Bekchanov</b>	
Sholi qobig'ini modifikatsiyalab olingan biosorbentning Ni(II) ionlarini yutish kinetikasi.....	435
<b>I.Sh.Yuldashov, U.R.Togayev, X.S.Toshov, Sh.Sh.Turgunbayev, A.X.Xaitbayev</b>	
Benzimidazol va uning hosilalari .....	441
<b>M.Abduvaliyeva, X.Turayev, Sh.Kasimov, E.Abdunazarov</b>	
KFTB sorbentining ayrim d-metallar bilan hosil qilgan birikmasining IQ-spektroskopik tahlili .....	450
<b>O.Tursunmuratov, F.Xurramova, D.Bekchanov</b>	
Vermikulit asosida olingan yangi ionitga Ni <sup>2+</sup> ionlarining sorbsiya kinetikasi va izotermasi .....	457
<b>G.Babojonova, M.Muxamediyev</b>	
Tarkibida elektrodonor atom saqlagan ionitlarda metallar sorbsiyasi.....	462
<b>I.Asqarov, U.Xusanov</b>	
Bosh og'rig'ida ishlatiladigan zamonaviy dori-darmon vositalarining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh sedana .....	467
<b>Sh.Karimov, A.Xaitbayev</b>	
Xitozan ajratib olish usullarini optimallashtirish .....	471
<b>M.Mamadjonova, R.Dexkonov, Sh.Abdullayev</b>	
<i>Nepeta olgae regel (l)</i> o'simligining aminokislota tarkibi.....	476

**IKKINCHI TUR O'ZLASHTIRMALIK VA MIKROMATN**  
**ВТОРОЙ ТУР КОСВЕННОЙ РЕЧИ И МИКРОМАТН**  
**THE SECOND TYPE OF INDIRECT SPEECH AND MICROTTEXT**

**Ro'ziyev Yarash Bozorovich<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Ro'ziyev Yarash Bozorovich**

– Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya**

*Maqolada o'zbek adabiy tilida ikkinchi tur o'zlashtirmalik (o'zlashtirmalikning morfologik turi)ning mikromatnda voqelanishi nemis tili bilan qiyosiy tahlil qilingan. Morfologik o'zlashtirmalik o'zbek tilida fe'l o'zagiga tegishli qo'shimcha qo'shish va emoq to'liqsiz fe'li orqali yasaladi. Xabar manbai, muallif nutqi, nutqiy amal o'rni va payti kabi o'zlashtirmalikni hosil qiluvchi kategoriyalar har doim ham gapda eksplitsit ifodalanmaganidan mikromatnga murojaat qilinadi. Jumaladan mikromatn yaxlitligi va hajmi masalasi ham atroficha yoritilgan. Nemis tilida o'zbek tilidagidek o'zlashtirmalikning morfologik turi mavjud, rus tilida esa faqat sintaktik turi xos. O'zbekcha badiiy asarlar asosan rus tili orqali nemis tiliga tarjima qilinganligi bois maqolada morfologik o'zlashtirmalik nemis tiliga noto'g'ri o'girilganligi misollar asosida tahlil qilingan. Maqolani yozishda til ruhiy-ijtimoiy xilqat deb qaraladigan yo'nalish nuqtayi nazaridan yondashildi.*

**Аннотация**

*В статье анализируется употребление второго типа косвенной речи (морфологического типа косвенной речи) в узбекском и немецком литературном языках в микротексте. Морфологическая косвенная речь производится в узбекском языке путем добавления суффикса к корню глагола и использования неполного глагола emoq. Категории, формирующие косвенной речи, такие как источник сообщения, авторская речь, место и время речевого акта, всегда отнесены к микротексту, поскольку не выражены эксплицитно в предложении. Также подробно освещается вопрос целостности и размера микротекста. Немецкий язык имеет морфологический тип косвенной речи, как и узбекский язык, тогда как русский язык имеет только синтаксический тип косвенной речи. Поскольку узбекские художественные произведения в основном переводятся на немецкий язык через русский язык, в статье на примерах анализируется неправильный перевод морфологического типа косвенной речи на немецкий язык. Статья написана с точки зрения языка как идеалистическо-материалистического явления.*

**Abstract**

*The article analyzes the use of the second type of indirect speech (the morphological type of indirect speech) in the Uzbek and German literary languages in the microtext. Morphological indirect speech is produced in Uzbek by adding a suffix to the verb roots and using the incomplete verb emoq. Categories that form indirect speech, such as the source of the message, the author's speech, the place and time of the speech act, are always referred to as microtext, since they are not explicitly expressed in the sentence. The issue of the integrity and size of the microtext is also covered in detail. The German language has a morphological type of indirect speech, like the Uzbek language, while the Russian language has only a syntactic type of indirect speech. Since Uzbek literary works are mainly translated into German through Russian, the article analyzes the incorrect translation of the morphological type of indirect speech into German using examples. The article is written from the point of view of language as an idealistic-materialistic phenomenon.*

**Kalit so'zlar:** o'zga nutq, ko'chirma nutq, o'zlashtirma nutq, matn, mikromatn, yaxlitlik, muallif nutqi, xabar manbai, morfologik vosita, nutq fe'li, til qurilishi, tejamkorlik.

**Ключевые слова:** чужая речь, прямая речь, косвенная речь, текст, микротекст, целостность, авторская речь, источник сообщения, морфологическое средство, речевой глагол, языковой строй, экономия.

**Key words:** someone else's speech, direct speech, indirect speech, text, microtext, integrity, author's speech, message source, morphological means, speech verb, language structure, economy.

**KIRISH**

O'zgaralar nutqi ifodalanishining eng oddiy usuli ko'chirma nutqdir. Ko'chirma nutqda o'zganing fikri hech o'zgarishsiz, aynan bayon qilinadi. O'zgaralar nutqi ifodalanishining ikkinchi muhim usuli o'zlashtirma nutqdir. O'zlashtirmalik sintaktik va morfologik yo'l bilan hosil bo'ladi. Morfologik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirmalik qiyoslanayotgan tillardan faqat o'zbek va nemis adabiy tillariga xos, rus tilida esa o'zlashtirmalikning faqat birinchi turi, ya'ni sintaktik yo'l bilan hosil bo'ladigani xosdir.

O'zbek tilida ikkinchi tur o'zlashtirmalik deganda ko'chirma gapdan morfologik yo'l ya'ni qo'shimcha va to'liqsiz (yordamchi) fe'l bilan yasaladigan shakllar nazarda tutiladi. Ko'chirma gapni ikkinchi o'zlashtirma gapga aylantirganda kesimning qo'shimchasi va to'liqsiz fe'l o'zgaradi xolos.

Ko'chirma gapning lug'aviy tarkibi o'zgarmaydi. O'zbek tilida ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish jarayonida yuqori darajada shakliy evrilish ro'y beradi. Aniqroq qilib aytganda fikr ifodalovchi vosita shaklan murakkab tushuncha anglatuvchi vositaga o'zgaradi. Natijada sintaktik tejamkorlik zuhur bo'ladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'zlovchi nutqining so'zma-so'z berilishiga ehtiyoj bo'lmaganda deb yozadi prof. A.N. Nurmaxonova *o'zlashtirma gap* qo'llanadi. O'zlashtirma gap turmushda ko'p ishlatiladi. Chunki o'zga gapning bu turi katta jumalarni qisqartirib aytishga qulaylik tug'diradi. Natijada ko'chirma gap muallif tomonidan ikkinchi marta o'zgartiriladi. Muallif birinchi marta ko'chirma gapni o'z gapi ichida o'zgartirmay qo'llasa ikkinchi marta u ko'chirma gapni gapiga yedirib o'z uslubida qaytadan ishlab chiqadi. Bu o'zgarish natijasida ko'chirma gap tarkibidagi kishilik olmoshlari berilmay, fe'lning shaxs, son kategoriyalari ko'rsatilmaydi, butun gap muallif nomidan uchinchi shaxs orqali ifodalanadi. Tadqiqotchining yakuniy xulosasi shuki, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar kommunikativ vazifani yuzaga chiqaruvchi vositalardan biridir [16, 504].

1976 yilda nashr etilgan akademik grammatikada mazkur mavzuning talqini akad. M. Asqarova qalamiga mansub. Mavzu *ko'chirma gapli konstruksiyalar* deb nomlangan [15, 457-473]. Sarlavha shunday nomlangan bo'lsa ham o'zga gapning uchala turi nazarda tutilgan. Unga shunday ta'rif beriladi. O'zganing gapi ma'lum shaxsning fikrini avtor (hikoya qilib beruvchi)ning gapi orqali ifodalanishidir. O'zganing gapini bayon qilib beruvchi avtor, uning gapi avtor gapi deyiladi. Gapi ifodalanayotgan shaxs so'zlovchi hisoblanadi [15, 458].

Zamonaviy tilshunoslikda o'zga nutqning asosan ikki turi ya'ni ko'chirma va o'zlashtirma nutq (gap yoki jumla) ajratiladi. Adabiyotlarda har qaysi tur alohida mavzu qilib ketma-ket beriladi. Bu jihatdan ular bir-biridan farqlanmaydi. Farq shundaki nemis va rus tillarida o'zga nutq vositalarining semantik funksional boshqacha aytganda paradigmatic va sintagmatic xususiyati (ya'ni shakli, tuzilishi, mazmuni va qo'llanishi) mazkur tillarning qurilishi (Bau, stroy)ga to'la mos keladi. Binobarin tadqiq talqin til qurilishining o'ziga xos xususiyatini aks ettiradi. Shunga ko'ra darslik va qo'llanmalarda berilgan qoidalar o'quvchi va talabalarga mazkur mavzular haqida to'g'ri va to'la bilim olish imkonini beradi.

Sintaktik birlik bo'lganidan gap kabi mikromatnga ham **yaxlitlik, tugallik** xos deb qaraladi. Adabiyotlarda ko'rsatilishicha, mikromatn yaxlitligi uch xil ko'rinishga ega: 1) tuzilishiga ko'ra (shakliy, zohiriy, struktur) yaxlitlik; 2) mazmun-mundariyasi jihatdan yaxlitlik; 3) nutqiy (kommunikativ) yaxlitlik yoki uning vazifa (funksiya)si [9, 18; 8, 323].

**Mikromatnning mazmuniy yaxlitligi** undagi mazmuniy asos (ya'ni tema)ning bittaligida o'z ifodasini topadi. Mikromatn temasi deganda uning mazmuniy yadrosi ya'ni butun matnga xos umumlashgan mazmun nazarda tutiladi [1, 15; 8, 324]. Mazmuniy asos ifodalanishi jihatdan to'rt guruhga ajratiladi: 1) almashish, 2) takror, 3) implikatsiya (tushib qolish) va 4) koordinatsiya [14, 29].

**Almashish** deganda mikromatn tarkibidagi keyingi gapdagi biror unsurning oldingi gapdagi oldingi gap biror unsur o'rnida qo'llanishi nazarda tutiladi. Bunday holda almashtirishdan foydalanilmasa mikromatnning faqat mazmun emas, tuzilish va kommunikativ yaxlitligiga ham putur yetadi. Almashish vositasi uch xil: 1) olmosh, 2) ma'nodosh so'z, 3) payt va o'rin holi [14, 38-82].

**Takror.** Mustaqil gaplarning mazmun jihatdan ifodalashda, ya'ni mikromatnga birlashtirishda lisoniy vositalarning takror qo'llanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Takror qo'llanadigan vositalar sirasiga ot (atoqli, turdosh, mavhum), sifat, ravish, fe'l turkumiga oid so'zlar, so'z birikmasi hamda gap kiradi [14, 83-120].

Mikromatnning mazmuniy yaxlitligini hosil qilishda implikatsiya ham ishtirok etadi. Bunda mikromatn tarkibidagi gaplarning mazmunan aloqasi, bog'liqligi vaziyat (situatsiya) yoki butun-qism munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bunday aloqa natijasida ochqich so'z bilan birga yana boshqa mavjudot yoki vaziyat taqozo etiladi [9, 20].

Ochqich so'z qo'llanmaganda mazmuniy asos(tema)ning yaxlitligi mikromatn qismlarining umumiy mazmunidan hosil bo'ladi: *Silberne Wasser brausten, süße Waldvögel zwitscherten, die Herdenglöckchen läuteten, die mannigfaltig grünen Bäume wurden von der Sonne goldig ausgestrahlt* (Heine). Ushbu mikromatn temasini *yozgi quyoshli kun* deb atasa bo'ladi. Bunga

## TILSHUNOSLIK

uning tarkibidagi tabiat tasviri aks etgan gaplarning mazmunini umumlashtirish imkon beradi [9, 21].

Bu fikrlarda nemis tilining xususiyati inobatga olingan. O'zbek tilshunosligida mikromatnga bag'ishlangan tadqiqotda *implikatsiya tushib qolish* degan ma'noda tushuniladi. Bunda, avvalo, ikki va undan ortiq mustaqil sodda gapning mazmunan yoki mantiqiy yo'l bilan bitta mikromatnga birlashib sabab-natija (1) va butun-qism (2) munosabati ifodalanishi nazarda tutiladi: 1) *Havo sovuq bo'ldi. Biz ishga chiqmadik.* 2) *Kecha baxtsiz hodisa yuz berdi. Karimning qo'li lat yedi* [To'xsanov, 1987, 28-29]. Bundan tashqari, tejash qonuniyati asosida muayyan lisoniy vositaning tushib qolishi ham implikatsiya deb ataladi. Quyidagi mikromatnda birinchi gapdagi ot (*Ummatali*) o'rnida ikkinchi gapda qo'llanadigan olmosh (*u*) tushib qolgan: *Ko'cha muyulishiga kelganda Ummatali to'xtadi. Xotiniga qaradi* (S. Ahmad). Ushbu mikromatn tematik zanjiri chizmasida ikkinchi gap temasi qavsda implikatsiya deb ko'rsatilgan [To'xsanov, 1987, 41]. Bundan ikkinchi gap temasi lisoniy vosita bilan ifodalangan degan ma'no anglashiladi. Ikkinchi gapda olmosh tushib qolgan deyilishining sababi shuki, tadqiqotchi eng kichik mustaqil sodda gap deganda *ega va kesimdan iborat gapni* tushunadi [8, 443].

Substansial (formal-funksional) sintaksis hamda til ruhiy-ijtimoiy xilqat deb qaraladigan yo'nalishlar nuqtayi nazaridan yondashsak, bu talqin o'zbek tili qurilishining o'ziga xos xususiyatiga mos kelmaydi deb, e'tirof etishimizga to'g'ri keladi. Bunday holda olmosh *tushib qoladi emas, tejaladi* deb, uning sabablari bayon qilinadi. Sabab shuki, birinchi gapda *ega* atoqli ot (*Ummatali*) bilan ifodalanganidan uni yana ta'kidlash zarurati yo'q. Shu bois uning morfologik vosita ya'ni egalik qo'shimchasi (-i) bilan ifodalanishi kifoya.

*Mikromatnning kommunikativ yaxlitligi* ikki yo'l bilan hosil bo'ladi. Avvalo, mikromatn tarkibiy qismlarining ketma-ket zanjirsimon aloqasidan iborat. Mikromatn tarkibidagi har bir keyingi gap kommunikativ jihatdan o'zidan oldingi gapga tayanib axborotni davom ettiradi. Natijada temarematik zanjir hosil bo'lib, uning nihoyat mikromatn chegarasini bildiradi. Shunday qilib, temarematik zanjir matn hosil qilish vazifasini bajaradi [7, 109]. Ikkinchidan, matnning kommunikativ tahlilida W. Schmidt, W. Harweg, M. Pfütze, H. Isenberg kabi tadqiqotchilar *kommunikativ maqsad* yoki *kommunikativ vazifa* atamasidan foydalanadi. An'anaviy sintaksisda kommunikativ maqsadning gapga nisbatan belgilangan uch asosiy turi bor: 1) darak, 2) so'roq va 3) buyruq. Bular matnga ham nisbat beriladi. O'zbek tilshunosligida ikkala nuqtayi nazar ham e'tirof etiladi [14; 10; 11; 12; 13].

**Matnning tuzilish jihatdan yaxlitligi**, jumladan, germanistika va rus tilshunosligida ko'p o'rganilgan [2; 3; 4; 5; 6]. Olimlarning fikricha tuzilish jihatdan yaxlitlik matn mazmuniy va kommunikativ yaxlitligining ifoda vositasi hisoblanadi. Bunday vositalarga kishilik, ko'rsatish va egalik olmoshi, olmosh-ravish, artikl, zamon shakli, son, ma'nodosh, ma'nosi yaqin ochqich so'zlar, lug'aviy takror, payt va o'rin ravishi, bog'lovchi, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, shuningdek, yuklama va modal-kirish so'zlar kiradi. Bu vositalar o'zi qo'llangan gapning *oldingi yoki keyingi gap(lar) bilan bog'liqligini*<sup>10</sup> ko'rsatish uchun xizmat qilib, matn hosil bo'lishida ishtirok etadi. Masalan, *Der Schwan und ihr Boot glitten lautlos aneinander vorüber* gapi alohida olib qaralsa, aniq artikl (*der*) va egalik olmoshi (*ihr*) qo'llanganligining sababi aniq bo'lmay qoladi. Gap esa tuzilish jihatdan yaxlit, tugal bo'lmaydi. Tarkibidagi mazkur vositalarda oldinga ishora mavjud. Binobarin, oldingi gaplarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Shundagina faqat tuzilish jihatdan emas, mazmunan va kommunikativ jihatdan ham tugallik hosil bo'ladi: *Im Kanal lag ein Boot; sie mieteten es und schwammen dahin. Ein Schwan kam ihnen entgegen. Der Schwan und ihr Boot glitten lautlos aneinander vorüber* (H. Mann).

Quyidagi mikromatnda yaxlitlikni ifodalovchi vositalar yuqoridagidan farq qiladi: **Marcel erwachte mit entsetzlichen Schmerzen in der Schulter. Bürger Buzot hatte ihn auf falsche Seite gelegt** (W. Bredel). Kishilik olmoshi (*ihn*) birinchi gapdan atoqli ot (*Marcel*) o'rnida qo'llangan, plyuskvamperfektdan keyin sodir bo'lgan voqea aniq (*imperfektda* ifodalangan). Demak, o'zaro tuzilish jihatdan va mazmunan bog'langan ikki gap birgalikda mikromatn hosil qilmoqda [9, 26].

<sup>10</sup> Буларнинг биринчиси анафорик, иккинчиси катафорик алоқа, боғланиш деб аталади [Тухсанов, 1987, 22]

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qisqacha sharhdan ma'lum bo'ladiki, xorijiy (nemis, rus) tillarda mikromatn yaxlitligi ham nazariy, ham amaliy jihatdan yetarli darajada o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida esa mikromatnning tuzilish jihatdan yaxlitligi mutlaqo o'rganilmagan. Mazmuniy va kommunikativ yaxlitlik qisman tadqiq etilgan. Endi bevosita va bilvosita tarjima asosida o'zlashtirmalikning ikkinchi tur shakllarini matniy, uzvli va qiyosiy-tipologik tahlil qilishga o'tamiz.

Tahlilni tarkibida ikkita o'zlashtirmalikning ikkinchi tur shakli qo'llangan mikromatnlardan boshlaymiz. Avvalo, mikromatnning chegarasini belgilashga harakat qilamiz. Buning uchun tarkibida ochqich so'z bo'lgan gaplarni topamiz: *Uning nazarida hozircha birdan-bir tayinli ish o'sha birinchi majlisni yaxshiroq o'tkazish, buning uchun pishiqroq tayyorlik ko'rish bo'lib qoldi* (75). Ushbu gap tarkibidagi ochqich so'zlar (*majlis, tayyorlik*) 81-sahifadagi birinchi abzas oxiridagi gapda shunday takrorlanadi (*majlis, e'lon*): *Saida xotirjam bo'ldi va ertasiga majlis haqida e'lon yozib osdi*.

Shularga asoslanib mikromatnning mazmuniy asosini *Majlisga tayyorgarlik* deb nomlasa bo'ladi. Mazkur gaplardan mikromatnning hajmi ham aniq bo'ladi. U besh sahifadan ortiqroq, o'nlab abzasdan tarkib topgan. Har bir abzas bittadan o'ntagacha va undan ortiq gapni o'z ichiga oladi. Mikromatnning mazmuniy yaxlitligini shakllantirishda takror bilan birga almashish, tejash (implikatsiya) vositalari ham ishtirok etadi. Kommunikativ maqsad kategoriyasining barcha ma'nosi (xabar, buyruq, so'roq) voqelangan. Gaplarni o'zaro mazmunan va shaklan biriktirish uchun bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi so'zlar qatnashgan. Bularning barchasini izohlash bir necha sahifani band etadi. Shu sababli faqat o'zlashtirmalik va ubilan aloqador semalar namoyon bo'ladigan abzasli gaplarni tahlil qilish bilan chegaralanamiz:

*Chunki bir vaqt Ismoiljon birmuncha masalalarda rais bilan kelisholmay uning nazaridan qolgan, yaxshi brigadir bo'lsa ham yelkangga oftob tegmas ekan.* (A. Qahhor. Sinchalak, 80)

Ushbu misol o'n qatorli abzasning oxirida kelgan bitta ergash gap va bitta ergashgan qo'shma gapdan iborat. Avvalo shuki, abzasdagi barcha gap xabar ifodalaydi ya'ni, darak gap. Ammo dastlabki gaplarda bevosita xabar, ya'ni so'zlovchi vazifasida kelgan Saidaning o'zi amalga oshirgan yoki guvohi bo'lgan voqea-hodisa xabar qilinadi. So'ngra ikkita shakl orqali o'lashtirma xabar bayon qilinadi.

Shakllardan biri *-gan ekan*, ikkinchisi *-(a)r ekan*. *-mas* ikkinchi qo'shimcha qismining bo'lishsiz shakli. Birinchi shaklda to'liqsiz fe'l tejalgan. Demak implikatsiya mavjud, u ikkala gapning shakliy va mazmuniy yaxlitligini shakllantirishda ishtirok etadi. Ikkala shaklda ham *o'tgan zamon* va *o'zlashtirma xabar* semalari namoyon bo'lmoqda. Birinchi sema lug'aviy vosita (*bir vaqt*) orqali ham ifodalanmoqda. U morfologik vosita (*-gan*)dan anglashilgan zamonnii oydinlashtiradi. Ayni vaqtda ikkinchi shakl *davomlilik* semasining ko'lamini ko'rsatadi. Shakl ikkinchi gapda, lug'aviy vosita birinchi gap tarkibida kelganidan lug'aviy vosita ikkala gapni o'zaro zamon jihatdan aloqasini shakllantirishda qatnashadi.

Ikkala gapda o'tgan zamonda ro'y bergan harakatning so'zlovchi tomonidan o'zlashtirib bayon qilinayotgani aniq. Ammo so'zlovchi kimning fikrini o'zlashtirib bayon qilayotgani aniq emas. Fikri o'zlashtirilgan shaxsni ko'rsatish uchun oldingi gapda lug'aviy vosita (*ba'zilar*) qo'llangan. So'zlovchi esa abzas boshida atoqli ot (*Saida*) bilan ifodalangan. Demak, Saida boshqa nutqiy amalda ba'zilardan eshitgan xabarni o'zlashtirib ikkita gap orqali voqelantirmoqda. Boshqacha qilib aytganda, ba'zilarning *bir vaqt Ismoiljon birmuncha masalalarda rais bilan kelisholmay uning nazaridan qolgan edik, yaxshi brigadir bo'lsa ham yelkasiga oftob tegmas edi* degan xabarida so'zlovchi tomonidan to'liqsiz fe'l o'zgartiriladi xolos. Natijada ba'zilar bevosita kuzatgan xabar qisman o'zgarib o'zlashtirma xabarga aylangan.

Shuni ham aytish joizki, misolning boshidagi bog'lovchi (*chunki*) mikromatn tarkibidagi bir abzasning o'zlashtirilgan xabar qismini o'zlashtirilmagan xabar qismi bilan bog'lash vazifasini bajarmoqda. Boshqacha aytganda, abzasning ikkinchi qismini turlicha qismi bilan bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Endi tahlil uchun tanlangan misolning bevosita tarjimasiga nazar tashlaymiz:

*Дело в том, что когда-то, правда уже давно, Исмаилджан совершил довольно редкий в их колхозе проступок – покритиковал председателя – и с тех пор был у него в опале,*

## TILSHUNOSLIK

хотя и продолжал оставаться одним из лучших бригадиров. (А.Каххар. Птичка-невеличка, 169)

Misol tarkibiga kirgan abzasning hajmi asl nusxaga mos. Abzas ikkala manbada ham o'n qatordan. Ammo misolning o'zi asl nusxada uch qator, tarjimada esa besh qator. Sababi yozuvchining har bir so'zni qo'llashda o'ta tejamkorlik bilan yondashgani inobatga olinmagan. Oqibatda asl nusxadagi bir so'z o'rniga ikki va undan ko'p so'z qo'llangan. Masalan, *chunki – дело в том, что deb, bir vaqt – когда-то, правда уже давно deb* o'g'irilgan. Asl nusxada yo'q so'zlar qo'shilgan: *довольно редкий в колхозе*. O'zga shaxsning ijtimoiy vazifasini anglatuvchi so'z (*rais*) uning familiyasi bilan almashtirilgan. Bundan tashqari, tarjima tilining xususiyati ayrim qo'shimcha anglatgan ma'noni so'z bilan ifodalashni taqozo etadi. Chunonchi, *davomlilik* ma'nosining ifoda vositasi asl nusxada *-(a)r (mas)* bo'lgani holda rus tiliga so'z (*продолжал*) bilan ag'darilgan. Xabar manbai o'zbekcha matnda bitta so'z (*ba'zilar*), tarjimada *двое или трое* bo'lib qolgan. Holbuki, nazarda tutilgan tushunchani rus tilida ham bitta so'z bilan ifodalasa bo'lar edi va hokazo.

Nemischa tarjima ruschaga aynan mos. Unda ham ruscha tarjimadagi barcha lug'aviy noqislik uchraydi. Jumladan, ikkita so'z (*bir vaqt*) to'rtta so'z (*freilich schon lange her*) bilan o'g'irilgan. Asl nusxada bo'lmagan so'zlar (*eine in der Kolchose ziemlich seltene Fehlleistung*) qo'shilgan va hokazo. O'zlashtirma xabarni ifoda etishda nemis tilining grammatik imkoniyatidan mutlaqo foydalanilmagan, rus tilidagidek faqat lug'aviy vosita bilan cheklanilgan. Katta rahbar(*rais*)ning kichik rahbar(*brigadir*)ga salbiy munosabati bo'rttirib ifoda etilgan. Rus tarjimonlari lug'aviy vosita va chiziqdan foydalangan bo'lsa nemis tarjimoni ohangni ham qo'shgan (yozuvda undov belgisi) va b.

*In der Tat, es war freilich schon lange her, hatte Ismaildshan eine in der Kolchose ziemlich seltene Fehlleistung begangen – er hatte den Vorsitzenden kritisiert! Seitdem lebte er in Ungnade, obwohl er weiterhin zu den besten Brigadiern gehörte.* (A.Kachar. Sekretär Saida, 66)

## XULOSA

Matn atamasi tilshunoslikda ikki xil birlikka nisbatan ishlatiladi. Birinchidan, so'zlovchi nuqtayi nazaridan tugallangan fikr ifodalaydigan bir yoki bir nechta gap tushuniladi. Bunday birlik mikromatn deb ataladi. Ikkinchidan, yaxlit asar (hikoya, qissa, roman, ilmiy asar, gazeta, jurnal va hokazo) nazarda tutiladi. Bunday butunlikka nisbatan makromatn atamasi qo'llanadi. Ikkalasiga ham mazmuniy (lisoniy), kommunikativ (nutqiy) va tuzilish (zohiriy) jihatdan yaxlitlik xos. O'zlashtirmalikni noqardosh tillarda qiyoslash maqsadida tanlangan o'zbekcha badiiy asarning bevosita (rus) va bilvosita (nemis) tarjimasi tahlil qilinganda o'zbek tili bosh xususiyati, shuningdek, yozuvchining uslubiga xos tejamkorlik tarjimada o'z aksini topmaganligiga guvoh bo'ldik.

## ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Agricola E. Semantische Relation im Text und System. Halle, 1969.
2. Diyk T.A. van. Some Aspekts of Text Grammars. The Hague-Paris, 1972.
3. Dressler W. Einführung in die Textlinguistik. Tübingen, 1972.
4. Duden. Grammatik. –Mannheim: Duden Verlag, 2008, S. 750-754.
5. Heidolph K. E. Kontextbeziehungen zwischen Sätzen in einer generativen Grammatik. „Kybernetika“, 2, 1966.
6. Isenberg H. Texttheorie und Gegenstand der Grammatik. Berlin, 1972.
7. Wittmers E. Über das Modell einer allgemeinen Grundstruktur des Textes als Mittel zur Erfassung spezifischer Textgesetzmäßigkeiten, erläutert am Beispiel der Ellipse. „Textlinguistik“, I. Dresden, 1970.
8. Zikrillayev G'. Ruh va til. Toshkent, „Fan“, 2018. (Zikrillayev G'.N., Ruh va til. Toshkent, „Fan“, 2018)
9. Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва: Высшая школа, 1981. – 183 с.
10. Рўзиев Я.Б. Немис адабий тилида ўзлаштира нутқ. International Scientific and Practical Conference "Modern philological paradigms: interaction of traditions and innovations II", [www.myscience.uz](http://www.myscience.uz). 18.03.2022, p. 72-77 (Ro'ziev Y.B. Nemis adabiy tilida o'zlashtirma nutq. International Scientific and Practical Conference "Modern philological paradigms: interaction of traditions and innovations II", [www.myscience.uz](http://www.myscience.uz). 18.03.2022, p. 72-77).
11. Ro'ziyev Y.B. O'zbek tilshunosligida ko'chirma va o'zlashtirma nutqning talqinu tavsifi. BuxDU ilmiy axboroti. – Buxoro: BuxDU, 2022. -№ 4-con. 68-77-b. [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8285](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8285). (Ro'ziev Y.B. O'zbek tilshunosligida ko'chirma va o'zlashtirma nutqning talqinu tavsifi. BuxDU ilmiy axboroti. – Buxoro: BuxDU, 2022. -№ 4-con. 68-77-6.)
12. Рўзиев Я.Б. Рус тилида кўчирма ва ўзлаштира нутқ. Ilm sarchashmalari, UrDU, 2022 yil, 11- son. 141-145-b. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/authorDashboard/submission/8287](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/authorDashboard/submission/8287). (Ro'ziev Y.B. Rus tilida ko'chirma va o'zlashtirma nutq. Ilm sarchashmalari, UrDU, 2022 yil, 11- son. 141-145-b.)
13. Рўзиев Я.Б. Руҳий қувват билан тилинг ўзаро муносабати. Innovative Development in Educational Activities. ISSN: 2181-3523. Volume 1, Issue 6, 2022. <https://zenodo.org/record/7434511#.Y5nmLX1BzIU> [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/authorDashboard/submission/8289](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/authorDashboard/submission/8289) (Ro'ziev Y.B. Ruhiy quvvat bilan tilning o'zaro munosabati. Innovative Development in Educational Activities. ISSN: 2181-3523. Volume 1, Issue 6, 2022.)

14. Тухсанов М. Микротекст и система средств выражения его когерентности в узбекской художественной речи. Дисс. ... канд. филол. наук. Бухара – Андижан, 1987. – 137 с.
15. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. Тошкент, “Фан”, 1976. (O‘zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. Toshkent, “Fan”, 1976.)
16. Ҳозирги ўзбек адабий тили. II. Синтаксис. Тошкент, “Фан”, 1966. (Hozirgi o‘zbek adabiy tili. II. Sintaksis. Toshkent, “Fan”, 1966.)

#### Misollar olingan badiiy asar

1. Абдулла Қаҳҳор. Синчалак. Повест // Асарлар. Беш жилдлик. Учинчи жилд. Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 44 – 188. (Abdulla Qahhor. Sinchalak. Povest // Asarlar. Besh jildlik. Uchinchi jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988. – B. 44 – 188.)
2. Абдулла Каххар. Птичка-невеличка//Собрание сочинений в пяти томах. Том III. Ташкент: Изд. Г. Гуляма, 1972. С. 119-317. *Перевод Константина Симонова и Камрона Хакимова.* (Abdulla Kahhar. Ptichka-nevelichka//Sobranie socheneniy v pyati tomax. Tom III. Tashkent: Izd. G. Gulyama, 1972. S. 119-317. *Perevod Konstantina Simonova i Kamrona Hakimova.*)
3. Abdulla Kachar. Sekretär Saida. Roman. 2-Auflage. Verlag Kultur und Fortschritt, Berlin. 1961. *Deutsch von Edeltraud Brümmer.*